



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

4. Маньковская Л.Ю. Формообразование и типология зодчества Средней Азии IX-начало XX века. Ташкент: Baktria press, 2024. – 496 с.
5. Formation of multistory residential complexes for Nukus City. E3S Web of Conferences. 2023.

NUKUS SHAHRIDAGI MAKTAB VA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI BINOLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jumaniyazova Yulduz Torebayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Nukus shahridagi maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari binolarining tipologik xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqot davomida Sovet davrida qurilgan tipik loyihali inshootlar bilan mustaqillikdan keyingi yangi tipdagi binolar qiyosiy tahlil qilindi. Arxitektura-tahliliy, qiyosiy va sotsiologik metodlar asosida olib borilgan izlanishlar natijasida mavjud muassasalar infratuzilmasida funksional, ekologik va iqlimiy jihatdan turli kamchiliklar aniqlangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda zamonaviy, energiya tejamkor va milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan loyihalarga e'tibor ortib borayotgani qayd etildi.

Аннотация

В данной статье исследуются типологические особенности школьных и дошкольных учреждений города Нукус. В ходе исследования был проведен сравнительный анализ типовых проектных конструкций, построенных в советское время, и новых типов зданий, построенных после обретения независимости. В результате исследований, проведенных с использованием архитектурно-аналитических, сравнительных и социологических методов, были выявлены различные функциональные, экологические и климатические недостатки в инфраструктуре существующих учреждений, однако в последние годы отмечено возрастающее внимание к современным, энергоэффективным и воплощающим национальные ценности проектам.

Abstract

This article studies the typological characteristics of school and preschool buildings in the city of Nukus. During the study, a comparative analysis was made of typical design structures built during the Soviet era and new types of buildings after independence. As a result of research conducted using architectural-analytical,

comparative and sociological methods, various functional, ecological and climatic shortcomings were identified in the infrastructure of existing institutions, but in recent years, it was noted that attention has been increasing in recent years to modern, energy-efficient and national values-embodied projects.

Kalit so‘zlar

maktab binolari, maktabgacha ta’lim muassasalari, tipologiya, arxitektura, shaharsozlik, iqlimiy sharoit, milliy qadriyatlar, modernizatsiya.

Ключевые слова

школьные здания, дошкольные учреждения, типология, архитектура, градостроительство, климатические условия, национальные ценности, модернизация.

Keywords

school buildings, preschool institutions, typology, architecture, urban planning, climatic conditions, national values, modernization.

Kirish

Nukus shahri Qoraqalpog‘iston Respublikasining ma’muriy, madaniy va ilmiy markazi sifatida nafaqat iqtisodiy o‘rinda, balki ta’lim tizimida ham yetakchi o‘rin tutadi. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti bevosita ta’lim sifatiga bog‘liq bo‘lgani uchun, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari mamlakatning kelajagini belgilovchi eng muhim ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Shu bois, ularning arxitektura-tipologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish zamonaviy pedagogika va shaharsozlik amaliyotining dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Asosiy qism

Tipologik xususiyat tushunchasi arxitektura sohasida keng qo‘llanilib, muayyan bino yoki inshootning funksional, kompozitsion va me’moriy shakllarini, shuningdek, ularning ijtimoiy-madaniy vazifalarini belgilab beradi. Ta’lim muassasalari binolarida tipologiya, birinchi navbatda, quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- funksional talablar - bolalarning yosh xususiyatlariga mos sinf va guruh xonalari, o‘yin maydonlari, ovqatlanish bloklari, sport zallari, dam olish zonalari mavjudligi;

- iqlimiy sharoit - Nukus shahrining keskin kontinental iqlimi (issiq va quruq yoz, sovuq qish) binolarni shamollatish, issiqlik izolatsiyasi va mikroiklimni tartibga soluvchi yechimlarni talab qiladi;

- ijtimoiy-demografik omillar - aholining o'sishi, yosh oilalarning ko'payishi maktab va maktabgacha muassasalarga talabning ortishiga olib kelmoqda;

- madaniy va milliy qadriyatlar - zamonaviy arxitektura yechimlarida milliy me'moriy elementlardan foydalanish, mahalliy qurilish materiallarini qo'llash zarurati mavjud.[1]

Sovet davri arxitektura amaliyotida O'zbekistondagi ko'plab maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari tipik loyihalar asosida qurilgan. Bu loyihalar yagona me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bir nechta standart variantlar butun respublika bo'ylab takroran qo'llanilgan. Ularning afzalligi - tez qurilishi va iqtisodiy samaradorligi bo'lsa-da, kamchiligi – joyning iqlimiy, milliy va shaharsozlik xususiyatlarini hisobga olmaganidir. Nukus shahrida ham 1970–1980-yillarda qurilgan ko'plab maktab va bog'chalar aynan shu tipik loyihalar asosida barpo etilgan.

Mustaqillikdan keyingi davrda esa yangi sharoit va talablar yuzaga keldi. Avvalo, aholi sonining o'sishi ta'lim muassasalariga talabni keskin oshirdi. Masalan, ayrim maktablarda bir smenada o'qitish imkoniyati bo'lmagani sababli, darslar ikki yoki hatto uch smenada tashkil qilina boshlandi. Bu holat nafaqat ta'lim sifatiga, balki bolalarning psixofiziologik salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli yangi tipdagi maktablar va bog'chalarni qurish zarurati tug'ildi. Ikkinchidan, zamonaviy ta'lim tizimi pedagogik metodlarning yangilanishini taqozo qilmoqda. Innovatsion metodlarni qo'llash uchun esa bino tipologiyasi ham mos bo'lishi lozim. Masalan, interaktiv ta'lim jarayonlarini tashkil qilish uchun sinf xonalarida texnik jihozlash imkoniyatlari kengaytirilishi, laboratoriyalar, kutubxonalar, axborot-resurs markazlari zamonaviy dizaynga ega bo'lishi kerak. Uchinchidan, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalarning rivojlanishida maktab va maktabgacha muassasa muhitining psixologik ahamiyati juda katta. Ranglar uyg'unligi, tabiiy yorug'lik

darajasi, mebel ergonomikasi, o'yin maydonlarining xavfsizligi - bularning barchasi binoning tipologik xususiyatlarini belgilaydi. Nukus shahrida olib borilgan kuzatuvlarda ayrim eski muassasalarda bu talablar yetarli darajada hisobga olinmaganligi ma'lum bo'ldi.[2]

Tadqiqot metodlariga ko'ra Nukusning shaharsozlik xususiyatlari ham alohida e'tiborga loyiq. Shahar ekologik jihatdan murakkab hududda joylashgan: yozda yuqori harorat, havoning quruqligi, qishda esa keskin sovuqlar kuzatiladi. Bu esa bino qurilishida tabiiy shamollatish tizimlari, issiqlik izolatsiyasi, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi. Afsuski, eski tipdagi ko'plab muassasalarda bu muammolar yetarli darajada hal etilmagan. Shu bois, bugungi kunda Nukus shahrida maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarini yangidan qurishda yoki rekonstruksiya qilishda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda:

Innovatsion tipologiya - zamonaviy ta'lim jarayonlariga moslashgan, moslashuvchan sinf va guruh xonalari, transformatsiya qilinadigan makon yechimlari;

Milliy qadriyatlar integratsiyasi - mahalliy me'morchilik elementlarini zamonaviy dizayn bilan uyg'unlashtirish;

Ijtimoiy ochiqlik - maktab va bog'chalarni nafaqat o'quvchilar, balki mahalla aholisiga ham xizmat qila oladigan ijtimoiy markazlar sifatida tashkil qilish.[2]

Yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olib, ushbu tadqiqotning uslublariga ko'ra - Nukus shahridagi maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari binolarining tipologik xususiyatlarini aniqlash, ularning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish hamda kelgusidagi qurilish va rekonstruksiya jarayonlari uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.[3]

Tadqiqot davomida quyidagi natijalar aytib o'tishimiz mumkin:

1. Sovet davrida qurilgan maktab va bog'chalar, asosan, tipik loyiha asosida qurilgan bo'lib, ularning ichki rejalashtiruv standarti va me'yoriy hujjatlarga mos edi. Ammo ular bugungi kun talablariga to'liq javob bermaydi.

2. Mustaqillikdan keyingi davrda qurilgan yangi tipdagi maktab va bog'chalarda milliy arxitektura elementlari qo'llanilmoqda, ochiq havoda o'yin maydonchalari kengaytirilgan, energiya tejamkor texnologiyalar joriy qilinmoqda.

3. Nukus shahrining iqlimiy sharoiti (quruq va issiq yoz, sovuq qish) binolarni loyihalashda alohida yondashuvni talab qiladi. Ayrim muassasalarda shamollatish va issiqlik izolatsiyasi yetarlicha hisobga olinmagan.

4. Aholi sonining ko'payishi tufayli ba'zi maktablarda o'quvchilar zichligi yuqori bo'lib, bu pedagogik jarayonga salbiy ta'sir qilmoqda.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Nukus shahridagi ta'lim muassasalari tipologiyasi o'zgarish bosqichida turibdi. Sovet davrida shakllangan tipik loyihalardan voz kechib, zamonaviy, qulay va milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan arxitektura yo'nalishiga o'tilmoqda. Biroq, mavjud binolarda rekonstruksiya va modernizatsiya ehtiyoji saqlanib qolmoqda.[4]

Muhokama jarayonida quyidagi masalalar alohida ahamiyat kasb etadi: maktab va maktabgacha muassasalarni loyihalashda ekologik va energiya tejamkor yechimlardan foydalanish zarur; bolalar psixologiyasiga mos keladigan ranglar, dizayn kod va o'yin maydonlari ta'minlanishi lozim; qish sharoitida issiqlik izolatsiyasini kuchaytirish, yozda esa shamollatish tizimini yaxshilash talab etiladi; yangi tipdagi ta'lim muassasalari uchun innovatsion arxitektura yechimlari ishlab chiqilishi, jamoatchilik fikri inobatga olinishi muhim.

Xulosa

Xulosa qilib aytsak shaharidagi maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari binolarining tipologik xususiyatlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, mavjud inshootlar bosqichma-bosqich yangilanmoqda, biroq ularning ko'pchiligi hali ham eskirgan tipologik me'yorlarga asoslangan. Shu sababli, yangi loyihalarda energiya tejamkor, ekologik, milliy arxitektura elementlariga asoslangan, bolalar uchun xavfsiz va qulay muhit yaratishga yo'naltirilgan tipologik yondashuvlarni qo'llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirov M. Shaharsozlik asoslari va arxitektura tipologiyasi. Toshkent: 2018 y. Fan va texnologiya.
2. Jumaniyozov B. "Maktabgacha ta'lim muassasalari arxitekturasining tipologik rivojlanish xususiyatlari". O'zbekiston arxitektura va qurilish jurnali, №3, 45–52. 2020 y.
3. Xudayberganov U. "Ta'lim muassasalari loyihalashda ekologik barqarorlik omillari". Qurilish va arxitektura muammolari, №2, 33–40. 2019 y.
4. Миронова Е. Н. Архитектурная типология дошкольных образовательных учреждений. Москва:2015

XO'JAYLI SHAHRINING ME'MORIY-REJAVIY YECHIMI

Karimova Nodirabegim Boburbek qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining yirik shaharlaridan biri bo'lgan Xo'jayli shahrining me'moriy-rejaviy tuzilmasi ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida shahar tarixiy shakllanish omillari, urbanistik rivojlanish bosqichlari, ekologik va ijtimoiy muhit bilan bog'liq xususiyatlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, zamonaviy shaharsozlik tamoyillari asosida mavjud muammolar va istiqboldagi yechimlar yoritildi.

Аннотация

В данной статье научно проанализирована архитектурно-планировочная структура Ходжейли, одного из крупных городов Республики Каракалпакстан. В ходе исследования были рассмотрены факторы исторического формирования города, этапы урбанистического развития, особенности, связанные с экологической и социальной средой. Также были освещены существующие проблемы и перспективные решения на основе принципов современного градостроительства.

Annotation

In this article, the architectural and planning structure of the city of Khojeyli, one of the largest cities of the Republic of Karakalpakstan, is scientifically analyzed.